



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

№2
2026



SERVIS

ILMIY-AMALIY JURNAL 2026 -yil, 2-soni

Muassis: Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan 2008-yil 31-dekabrda
0561-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
O‘zR OAK Riyosatining 19.03.2017 y., 239/5-sonli qarori bilan e’tirof etilgan

Tahririyat a’zolari:

Mas’ul kotib:

i.f.d., prof. M.Q.Pardayev

Muharrirlar:

i.f.d., dotsent F.A.Safarov
PhD, dotsent I.M.Pardayeva
PhD, I.Sh.Ernazarova

Texnik muharrir:

katta o‘qituvchi F.O.O‘roqov

Korrektor:

PhD, dotsent v.b.
T.I.Yahyoyev

Sahifalovchi:

PhD, dotsent v.b.
H.N.Ochilova

1 yilda 4 marotaba
chop etiladi.

**O‘zbekiston hududida
tarqatiladi.**

Tahririyat manzili:

140100, Samarqand shahar,
Amir Temur ko‘chasi, 9-uy,

tel.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

faks: +998(366)231-12-53
el.pochta:

samisiservis@mail.ru

Tahrir hay’ati raisi:

M.E.Po‘latov – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori,
i.f.d., professor

Tahrir hay’ati raisi o‘rinbosari:

O.M.Pardayev – SamISI prorektori, iqtisod fanlari doktori,
professor

Tahrir hay’ati a’zolari:

M.M.Muxammedov – SamISI professori, iqtisod fanlari
doktori

D.R.Zaynalov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

O.M.Murtazayev – TDIUSF direktori, iqtisod fanlari doktori,
professor

M.R.Boltabayev – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

R.X.Ergashev – QarMII professori, iqtisod fanlari doktori

B.K.G‘oibnazarov – iqtisod fanlari doktori, professor

I.S.To‘xliyev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

K.B.Urazov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

D.H.Aslanova – iqtisod fanlari nomzodi, professor

Q.J.Mirzayev – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

B.I.Isroilov – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

G.M.Shodiyeva – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

S.N.Toshnazarov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

R.N.Normaxmatov – SamISI professori, texnika fanlari doktori

A.Bektemirov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

M.T.Alimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

Z.Dj.Adilova – TDIU professori, iqtisod fanlari doktori

Sh.O.Quvondiqov – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

L.N.Xalikova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

F.A.Safarov – SamISI dotsenti, iqtisod fanlari doktori

A.M.Karimova – SamISI professori, iqtisod fanlari doktori

I.B.Mattiyev – SamISI professori, pedagogika fanlari doktori

B.F.Boronov – SamISI professori v.b., iqtisod fanlari doktori

A.N.Xoliqulov – SamISI professori, iqtisod fanlari nomzodi

X.A.Raximov – SamISI dotsenti, PhD

S.A.Babanazarova – SamISI dotsenti, PhD

H.N.Ochilova – SamISI dotsenti v.b., PhD

I.R.Berdikulova – SamISI dotsenti v.b., PhD

A.Q.G‘apparov – SamISI dotsenti v.b., PhD

TURIZM VA MEHMONXONA XO‘JALIGI	
Jahongir Rasulovich Zaynalov, Muxabbat Ismatjon qizi Umirzoqova Kambag‘allikni qisqartirishda turizm xizmatlarining o‘rni	63
Озода Мамаюнусовна Пардаева “Ақлли туризм” соҳасида оилавий тадбиркорлик тизимини ривожлантириш йўналишлари	67
Райхона Садриддиновна Амриддинова, Мехринисо Мирзохидовна Кахрамонова Тренды устойчивого туризма и их применение в Узбекистане	71
Farida Abduxalimovna Axmedjanova, Kamola Abdumurodova, Dilnoza Shokirova O‘zbekistonda turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimini takomillashtirish yo‘llari	77
Ziyovuddinxon Toshbolta o‘g‘li Bakayev Turizm va mehmondo‘stlik industriyasida turistik dala hovlilar tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar samaradorligini oshirish yo‘llari	80
Камилла Бахромовна Суюнова Современные маркетинговые подходы в туризме	87
Muhriddin Husniddin o‘g‘li Qilichov Buxoro tarixiy markazidagi meros obyektlarida turistik sig‘im imkoniyatlari	91
Raxmatulla Hayitboyev, Bobir Zoirovich To‘qsonov Buxoro viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	98
Лариса Алижоновна Мусабаева, Тимур Ибодуллаевич Ибрагимов Гули Авазхон қизи Ганиева Оценка конкурентоспособности туристических предприятий на региональном рынке	102
Nurbek Janon o‘g‘li Toshev Mintaqaviy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda turizm sohasining konseptual modelini takomillashtirish	105
Raxmatulla Hayitboyev, Shohzod Baxtiyor o‘g‘li Sadinov, Feruz Yorqin o‘g‘li Hasanov Navoiy viloyatida turizmni rivojlantirish istiqbollari	110
Nilufar Xabibjonovna Xolboyeva, Rayxona Sadriddinovna Amriddinova Gruziya tajribasi asosida O‘zbekistonning rekreatsion turizm sektorini rivojlantirish imkoniyatlari	113
Kamol Sharifovich Yuldashev Buxoro viloyatida avtoturistlar uchun “Avtoturargoh” loyihasini amalga oshirish istiqbollari	116
Temurbek Salomov Ziyorat turizmining barqarorligini oshirish va xizmatlar sohasiga ta’siri	122
MENEJMENT VA MARKETING	
Azizjon Isroiljonovich Ibroximov, Mashxura Toirxonovna Alimova Oliy ta’lim muassasalarida KPI tizimini samarali joriy etish va yuritish	126
Xilola Nematovna Ochilova Boshqarish tizimida raqobatbardoshlikni oshirishda karyerani rivojlantirish texnologiyalarining ahamiyati	130
Navruzbek Zarifovich Niyatov Xizmat ko‘rsatish sohasida boshqaruvni takomillashtirish	135
Samar Safarovich Bozorov Mintaqa milliy turizm bozorining kotent marketing brendining shakllanish darajasi	139
Sadulla Shodiyevich Urazov Tashkilot boshqaruvida CAPI modelidan foydalanishning nazariy va amaliy asoslari	143

устойчивым и социально оправданным. Иными словами, речь идет не о замедлении туризма, а о повышении его институциональной и территориальной эффективности.

Одновременно важно учитывать и ограничения практического переноса международных данных. Потребительские установки глобальной выборки могут различаться по странам происхождения, доходным сегментам и типам путешествий. Поэтому на следующем этапе для Узбекистана было бы целесообразно провести собственные выборочные исследования среди въездных и внутренних туристов, а также среди жителей туристских центров. Это позволило бы детализировать различия между паломническим, культурно-познавательным, деловым, событийным и экологическим туризмом, а затем адаптировать меры по сегментам. Тем не менее уже на текущем этапе международные данные дают достаточно оснований для корректировки приоритетов развития отрасли.

Список использованной литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан, от 15.05.2025 г. № УП-87, <https://lex.uz/ru/docs/7531353>
2. Booking.com's 2025 Research Reveals Growing Traveler Awareness of Tourism Impact on Communities Both at Home and Abroad. <https://news.booking.com/>
3. <https://stat.uz/ru/>
4. <https://daryo.uz/ru/category/sayohat/d4r1ix2ykfpg>
5. <https://gov.uz/ru/uzbektourism/news/view/132181>
5. <https://gov.uz/en/uzbektourism/news/view/132181>
6. <https://gov.uz/en/uzbektourism/departments/staff?active=3248>
7. <https://www.unwto.org/event/general-assembly-twenty-fifth-session>

R.Amriddinova, M.Qahramonova Barqaror turizm tendentsiyalari va ularning O‘zbekistonda qo‘llanilishi Annotatsiya. Ushbu maqolada Booking.com saytining 2025-yilgi xalqaro ma’lumotlarini O‘zbekistonda turizm siyosati va biznesida amaliy qo‘llanilishi nuqtayi nazaridan talqin qilish ko‘rib chiqiladi. Sayohatchilarning xulq-atvori va munosabatlarining ikkilamchi tahlili asosida O‘zbekiston turizm sanoatining barqarorligi, raqobatbardoshligi va ijtimoiy ta’sirini yaxshilashi mumkin bo‘lgan sohalar aniqlandi. Kalit so‘zlar: barqaror turizm, Booking.com, iste'molchilar xulq-atvori, turizm siyosati, mahalliy jamoalar, raqamlashtirish, O‘zbekiston, mehmonxona sanoati, turizm infratuzilmasi.	R.Amriddinova, M.Qahramonova Sustainable Tourism Trends and Their Application in Uzbekistan Abstract. This article analyzes international data from Booking.com 2025 from the perspective of its practical application in tourism policy and business in Uzbekistan. The aim of the article is to use secondary analysis of data on traveler behavior and attitudes to identify destinations that can improve the sustainability, competitiveness, and social impact of Uzbekistan's tourism industry. Keywords: sustainable tourism, Booking.com, consumer behavior, tourism policy, local communities, digitalization, Uzbekistan, hotel industry, tourism infrastructure.
--	--

Abduxalimovna Farida Axmedjanova– Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, t.f.n.

Kamola Abdumurodova – SamISI, Servis fakultituti talabasi

Dilnoza Shokirova – SamISI, Servis fakultituti talabasi

O‘ZBEKISTONDA TURISTIK XIZMATLARNI STANDARTLASHTIRISH VA SERTIFIKATLASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada turistik xizmatlar sifatini ta’minlashda standartlashtirish va sertifikatlashtirishning o‘rni tahlil qilingan. Xalqaro tajribaga tayangan holda turizm xizmatlarini tartibga solishchi mexanizmlari o‘rganilib, O‘zbekistonda ushbu tizimni takomillashtirish yo‘llari ko‘rsatib berilgan. Turistik xizmatlarning o‘ziga xos xususiyatlari va ularni standartlashtirishdagi muammolar yoritilgan hamda amaliy takliflar ishlab chiqilgan. Kalit so‘zlar: turizm, xizmatlar sifati, standartlashtirish, sertifikatlashtirish, raqobatbardoshlik, me’yoriy hujjatlar, turistik xizmatlar, sifat menejmenti, normativ-huquqiy hujjatlar, davlat standartlari.

Kirish. Hozirgi globallashuv sharoitida turizm sohasi jahon iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Turistik xizmatlar sifatini oshirish, ularning

xavfsizligini ta'minlash va xalqaro bozorda raqobatbardoshligini kuchaytirish muhim vazifalardan biridir. Xizmatlar sifati va xavfsizligiga qo'yiladigan talablar asosan standartlar orqali belgilanadi. Standartlarda fan, texnika va ilg'or xalqaro tajribalar mujassam bo'lib, ular inson hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va atrof-muhitni himoya qilishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish yo'nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar turistik xizmatlarning sifati, xavfsizligi va raqobatbardoshligini oshirishda standartlashtirish tizimining muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

Xorijiy olimlardan J. Swarbrooke va S. Horner o'z tadqiqotlarida turizm industriyasida xizmatlar sifati iste'molchi ehtiyojlariga mos ravishda doimiy takomillashib borishi zarurligini ta'kidlaydilar. Ularning fikricha, standartlashtirish jarayoni xizmat ko'rsatishning yagona mezonlarini belgilash orqali bozorda shaffoflikni ta'minlaydi va iste'molchilar ishonchini oshiradi¹.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, ISO (International Organization for Standardization) tomonidan ishlab chiqilgan standartlar turizm xizmatlarini baholashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. ISO 9001 sifat menejmenti tizimi ko'plab mamlakatlarda turizm korxonalarida joriy etilgan bo'lib, xizmatlar sifatini boshqarishda samarali vosita sifatida e'tirof etiladi.

MDH mamlakatlari olimlaridan V. S. Senin va N. I. Kabushkin turizm xizmatlarini standartlashtirishning institutsional jihatlarini o'rganib, davlatning tartibga solishdagi roli rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim ekanligini asoslab berganlar. Ularning tadqiqotlarida sertifikatlashtirish tizimi nafaqat sifatni nazorat qilish, balki turizm infratuzilmasini rivojlantirish vositasi sifatida ham qaraladi².

O'zbekistonlik olimlardan B. Xodiyev va M. Qosimovalarning ilmiy ishlarida milliy turizm bozorida xizmatlar sifatini oshirish, xalqaro standartlarni joriy etish hamda normativ-huquqiy bazani takomillashtirish masalalari keng yoritilgan. Ular O'zbekistonda turizm xizmatlarini standartlashtirish tizimi bosqichma-bosqich rivojlanib borayotganini, ammo uni xalqaro talablar darajasiga yetkazish zarurligini ta'kidlaydilar.³

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar turizm sohasida raqamlashtirish jarayonlari standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini ko'rsatmoqda. Xususan, onlayn bronlash tizimlari, mijozlar fikr-mulohazalari (reviews) va reyting platformalari xizmatlar sifatini baholashda muqobil mexanizm sifatida shakllanmoqda.

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatdiki turistik xizmatlarning sifatini oshirish, mijozlar xavfsizligini ta'minlash va turizm bozorida kuchli raqobat muhitini shakllantirishda, turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, mazkur tizimni takomillashtirishda xalqaro tajribani o'rganish va milliy sharoitga moslashtirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida turistlar xavfsizligini ta'minlash tizimi, huquqiy-me'yoriy baza, amaliy choralar, mavjud muammolar va ularning yechimlari kompleks tahlil qilingan.

Tahlil va natijalar. Turistik xizmatlar o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ular iste'molchilar talabiga qarab tez o'zgarib boradi. Shu sababli ushbu xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish murakkab jarayon hisoblanadi. Standartlashtirish orqali xizmatlar sifati bir me'yorga keltiriladi, xavfsizlik darajasi ta'minlanadi va iste'molchilar ishonchi oshiriladi. Sertifikatlashtirish esa xizmatlarning belgilangan talablarga muvofiqligini tasdiqlaydi. Rivojlangan mamlakatlarda turistik xizmatlarni sertifikatlashtirish ko'pincha ixtiyoriy xarakterga ega. Bozor raqobati yuqori bo'lganligi sababli xizmat ko'rsatuvchi subyektlar o'z-o'zidan sifatni oshirishga intiladilar. Aksincha, rivojlanayotgan davlatlarda hukumat turizm sohasini faol tartibga soladi va standartlashtirish hamda sertifikatlashtirish ko'pincha majburiy tarzda amalga oshiriladi.

O'zbekistonda turizm sohasini tartibga solish. O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, “Turizm to'g'risida”gi qonun va 2019–2026 yillarga mo'ljallangan turizmni rivojlantirish konsepsiyasi ushbu sohaning

¹ Swarbrooke, J., & Horner, S. Consumer Behaviour in Tourism. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2007.

² Senin, V. S. Organizatsiya mezhdunarodnogo turizma. – Moskva: Finansy i statistika, 2003.

³ Xodiyev, B. Yu. Milliy iqtisodiyotda xizmatlar sohasi rivoji. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018. , Qosimova, M. S. Xizmatlar marketingi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2020.

huquqiy asosini tashkil etadi. Shuningdek, turizm xizmatlarini tartibga solish maqsadida bir qator davlat standartlari ishlab chiqilgan:

- O‘z DSt 18513:2017 –“Turizm xizmatlari. Mehmonxona va turistlarni joylashtirish vositalarining boshqa turlari. Atamashunoslik”.
- O‘z DSt 3220:2023 –“Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Umumiy talablar”.
- O‘z DSt 3296:2023 –“Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalari. Balli tasniflash tizimi”
- O‘z DSt 3612:2022 –“Turistik-ekskursiya xizmati. Sayyohlarni o‘tovda qabul qilish va joylashtirish. Umumiy talablar”
- O‘z DSt 3417:2019 “Turizm xizmatlari. Joylashtirish vositalarida xizmat ko‘rsatadigan xodimlarga doir umumiy talablar”.
- O‘z DSt 3418:2019 “Turizm xizmatlari. Turoperator va turagentlar xodimlariga doir umumiy talablar”.

Mazkur standartlar turistik xizmatlar sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi.

Muammolar va yechimlar. Turfirmalar oldida asosiy muammolardan biri me‘yoriy hujjatlarni amaliyotga to‘liq joriy etish hisoblanadi. Bu borada sertifikatlashtirish idoralari va ilmiy-tadqiqot institutlari tomonidan maslahatlar, seminarlar va treninglar tashkil etilmoqda. Biroq mavjud tizimni yanada takomillashtirish zarurati saqlanib qolmoqda.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, turistik xizmatlarni standartlashtirish va sertifikatlashtirish tizimi turizm sohasining barqaror rivojlanishini ta‘minlovchi muhim omillardan biridir. O‘zbekistonda bu yo‘nalishda sezilarli ishlar amalga oshirilayotgan bo‘lsa-da, mavjud tizimini yanada takomillashtirish, xalqaro talablar asosida rivojlantirish, tizim samaradorligini ta‘minlab, tadbirkorlarga qulay muhit yaratish uchun quyidagilarni taklif etamiz:

1. Turizm sohasida xalqaro standartlarni keng joriy etish
2. Sertifikatlashtirish jarayonlarini soddalashtirish va shaffofligini oshirish
3. Sohadagi mutaxassislar malakasini muntazam oshirib borish
4. Tadbirkorlar uchun maslahat va axborot xizmatlarini kengaytirish
5. Raqamli texnologiyalar asosida boshqaruv tizimini rivojlantirish
6. Ichki sifat nazorati va audit tizimlarini joriy etish

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risidagi PF-60-son farmoni (28.01.2022 y)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611 Farmoni
3. O‘zbekiston Respublikasining “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni(03.11.2022 y)
4. O‘zbekiston Respublikasining “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni (27.02.2023 y)

Ф.Ахмеджанова, К.Абдумуродова, Д.Шокирова Пути совершенствования системы стандартизации и сертификации туристических услуг в Узбекистане Аннотация. В данной статье анализируется роль стандартизации и сертификации в обеспечении качества туристических услуг. Также на основе международного опыта рассматриваются механизмы регулирования туристических услуг и определяются направления совершенствования данной системы в Узбекистане. Освещаются особенности туристических услуг и проблемы их стандартизации, а также разработаны практические рекомендации. Ключевые слова: туризм, качество услуг, стандартизация, сертификация, конкурентоспособность, нормативные документы, туристические услуги, менеджмент качества, государственные стандарты.	F.Akhmedzhanova, K.Abdumurodova, D.Shokirova Ways to improve the system of standardization and certification of tourism services in Uzbekistan Abstract. This article analyzes the role of standardization and certification in ensuring the quality of tourism services. Based on international experience, it also examines the mechanisms for regulating tourism services and identifies directions for improving this system in Uzbekistan. The specific features of tourism services and the challenges of their standardization are highlighted, and practical recommendations are developed. Keywords: tourism, service quality, standardization, certification, competitiveness, regulatory documents, tourism services, quality management, state standards.
--	---

ISSN 2091-5187

❧ “SERVIS” ❧

Jurnal Samarqand iqtisodiyot va servis instituti tahririyat
bo‘limida nashrga tayyorlandi.

15.05.2026-yilda terishga berildi. 26.05.2026-yilda bosishga ruxsat etildi. Ofset
bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84_{1/8}. “Times” garniturasini. Ofset bosma usuli.
Shartli bosma tabog‘i 15,4. Hisob-nashriyot
tabog‘i 14,37. Adadi 100 nusxa. Buyurtma № 0105A/26

Samarqand iqtisodiyot va servis institutining
matbaa bo‘limida chop etildi.
Litsenziya № 025316.
Reestr № X-119112.

Manzil: Samarqand shahri, Shoxruh ko‘chasi, 60-uy.

© Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, 2026.